


Farg'ona viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi (2018 yil yanvar-avgust)


Respublika bo'yicha joriy yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 7 099,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 foizga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 721,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 26,9 foiz), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 5 702,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,5 foiz) hamda uyushmagan savdoda tovar aylanmasi 675,8 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,8 foizga kamaygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2017 yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qo'qon, Farg'ona, Marg'ilon shaharlari hamda Uchko'prik tumanida qayd etildi.

**Chakana savdo
tovar
aylanmasining
o`shish sur`atlari
(% da)**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`rganilgan yilning mos davriga nisbatan 26,9 foizga o`sgan va 721,0 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,2 foiz ulushiga to`g`ri keladi.

**Chakana savdo
tovar aylanmasi
tarkibi (foizda)
(2018 yilning
yanvar–avgust
holatiga)**



Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 5702,7 mlrd. so`mni tashkil etib, 2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 2,5 foizga o`shirishga erishdi. viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 80,3 foizga teng kelmoqda.

*Hududlarda
kichik
tadbirkorlik
sub`ektlarining
respublika
chakana savdo
tovar
aylanmasidagi
ulushi (%da)*



2018 yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1954,4 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 foizga ko`paygan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Farg'ona viloyati	1954,4	102,6
<i>shaharlar</i>		
Farg'ona	6 097,6	103,4
Qo'qon	3 360,8	110,3
Quvasoy	2 124,8	96,8
Marg'ilon	2 425,0	103,7
<i>tumanlar</i>		
Oltiariq	1 562,9	101,8
Qo'shtepa	2 006,6	99,8
Bag'dod	1 224,9	99,4
Buvayda	1 391,2	102,0
Beshariq	1 182,5	100,8
Quva	1 495,4	101,8
Uchko'prik	944,1	103,0
Rishton	1 228,4	99,1
So'x	1 615,7	101,2
Toshloq	1 080,3	102,2
O'zbekiston	830,6	101,9
Farg'ona t	1 867,3	100,5
Dang'ara	1 073,8	100,5
Furqat	885,1	102,0
Yozyovon	2 930,3	99,6

Fargona viloyatining ulgurji savdo Tovar aylanmasi (2018 yil yanvar-avgust)

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, viloyatning deyarli barcha hududlarida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning shu davriga nisbatan oshgan. Boshqa hududlarga nisbatan ushbu ko`rsatkich Farg'ona shahri (6097,6 ming so`m), Qo`qon shahri (3360,8 ming so`m) va Yozyovon tumanida (2930,3 ming so`m) sezilarli darajada yuqori bo`lgan.


2018 yilning o`tgan davri mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,3 foizni tashkil etib, 134,0 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 0,3 foizga o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 97,6 foiz ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2036,0 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 0,5 foizga kamaydi.

Ulgurji tovar aylanmasi o`tgan yilning shu davriga nisbatan quyidagi hududlarning o`shish sur`atida kamayishi kuzatildi: Farg'ona tumani-27,6 %, Bag`dod tumani – 54,1 %, Qoqon shahar -68,3 %, Beshariq tumani-70,6 %, Qo`shtepa tumani-70,8%.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 3,5 foizga oshdi va 1472,3 mlrd. so`mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 72,3 foizni tashkil qildi.

ududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari (%da)





Nashr uchun

mas'ul:

M.Turg'unova

Tel: 71 230-87-18